MILLIY SUG'URTA BOZORINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Olmosova Munisa Sherxon qizi,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. talaba

Annotatsiya: Milliy sug'urta bozorida raqobatni rivojlantirishda sug‘urta operatsiyalarining amalga oshirilish tartibi juda muhim hisoblanadi. Sug'urta operatsiyalari deganda sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta bozori uchunsifatli sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, tomonlar o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilgandan tortib to uning bajarilishi, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda esa hodisaning mutaxassislar tomonidan o'rganilishi, baholanishi, sug'urtalanuvchining da'volari ko'rib chiqilishi va uning sug'urtalovchi tomonidantartibga solinishi tushuniladi.

Kalit so'zlar: Sug'urta, sug‘urta texnologiyalari, raqamlashtirish, risklar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan sug`urta tizimining rivojlanishiga jiddiy ahamiyat bergan holda hukumatimiz tomonidan raqobatga asoslangan sug`urtabozorini tashkil qilish va uni takomillashtirish borasida ko`plab chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Dastlab sug`urta tizimining huquqiy asoslari yaratildi, sug`urta sohasidagi davlat monopoliyasiga barham berildi va turli mulkchilikka asoslangan sug`urta tashkilotlarini tashkil qilishga, ularning sug`urta faoliyatini rivojlanishiga keng yo`l ochildi. Sug`urta tizimida sog`lom raqobat shakllantirildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz sug`urta bozori iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga ishonchli va zarur xizmatlarni ko`rsatish imkoniga ega bo`ldi. Muhimi aholining keng qatlami sug`urta xizmatlari bilan ta`minlanmoqda. Sug`urtaning majburiy tartibda kiritilishi, bir tomondan, sohaning eng asosiy muammolaridan biri bo`lgan aholi sug`urta madaniyatining ko`tarilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yetkazilgan zararning sug`urta mexanizmi orqali kafolatli qoplanish tizimini yaratadi.

Hozirda milliy sug`urta bozorida 27 ta sug`urta kompaniyasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sug`urtalovchilarning hududiy bo`linmalari soni 900 taga yetgan. Shuningdek, sug`urta bozorida 7000 ta sug‘urta agenti, 3 ta sug`urta brokeri, 4 ta aktuariy hamda 5 ta assistans, 14 ta adjaster va syurveyer kompaniyalari tegishli xizmatlarni ko`rsatmoqda. Sanab o‘tilgan sub’ektlarning barchasi O‘zbekiston sug‘urta bozorida bugungi kunda faoliyat yuritayotgan sug‘urta sub’ektlari hisoblanadi. Demak, birgina mijozga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun birgina sug‘urta kompaniyasining faoliyati etarli emas, mijozga har tomonlama qulay bo‘lishi maqsadida mazkur sub’ektlarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va ularninghar biri o‘z funksiyasiga ega. Birgina shartnomaning tuzilishi va shunga mos holdabir sug‘urta hodisasi tufayli sug‘urta qoplamasining to‘lanishi uchun mazkur sub’ektlarning yordamiga tayaniladi va shunda sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish tezligi va sifati kuchayadi.

Quyida ko‘rsatilgan jadvalda 2017 yil mobaynida faoliyat ko‘rsatgan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy natijalari aks etgan, ya’ni aholidan sug‘urta mukofotlarini jalb etish natijasida yig‘ilgan jami summa hamda uning oldingi yil xuddi shu davrga nisbatan o‘zgarishi va sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari natijasida aholiga to‘lab berilgan sug‘urta qoplamalarining jami summasi hamda uning oldingi yil xuddi shu davrga nisbatan o‘zgarishi. Guvohi bo‘layotganimizdek, barcha sug‘urta kompaniyalari raqobat asosida faoliyat yuritgan, buni sug‘urta mukofotlarini jalb etishdagi ijobiy o‘zgarishga, ya’ni o‘sish kuzatilganiga tayanib aytish mumkin. So‘nggi yillarda sug‘urta bozoridagi etakchilikni qo‘ldan boy bermay kelayotgan

“O‘zagrosug‘urta” kompaniyasi sug‘urta qoplamalarini to‘lash bo‘yicha jonbozlik ko‘rsatgan, o‘tgan yilga nisbatan 3,2 barobarga ko‘proq sug‘urta qoplamasini to‘lagan, bundan ko‘rinadiki sug‘urtalanuvchilarning sug‘urta da’volari ijobiy qondirilishiga erishilgan. Aynan shu omil sug‘urta bozoridagi raqobatni kuchaytiruvchi eng muhim omil hisoblanadi.

SUG'URTA BOZORINING 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari kesimidagi ma'lumot[1]

mln.so'm


T/r	Sug'urta tashkiloti nomlanishi	Sug'urta mukofotlari	O'zgarishi %da	Sug'urta to'lovlari	O'zgarishi %da
1	"O'zagrosug'urta" AJ	134 295,3	94,1	93 251,5	317,0
2	"O'zbekinvest" EIMSK	130 832,1	125,9	20 311,6	135,3
3	"Gross Insurance" MChJ	81 269,5	220,4	11 405,2	628,9
4	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	80 344,1	106,7	23 895,7	137,2
5	"O’zbekinvest Hayot" MChJ	63 517,4	176,6	37 616,0	185,0
6	"Alfa Invest" MChJ ST	61 905,7	160,3	7 128,9	153,1
7	"Alskom" AJ SK	46 070,9	118,6	11 307,6	241,2
8	"New Life Insurance" MChJ	44 677,5	274,8	24 965,1	224,6
9	"Asia Inshurans" MChJ SK	35 247,6	108,6	4 848,0	95,2
10	"Euroasia Insurance" MChJ QK SK	30 608,1	196,8	759,5	119,4
11	"Temiryo'l Sug'urta" MChJ	28 063,9	132,4	1 862,3	148,5
12	"Kapital Sug’urta" AJ	24 801,5	93,9	6 349,6	109,5
13	"Ingo-Uzbekistan" SAJ	22 334,9	119,4	1 506,9	105,7
14	"Alfa Life" ShXJ ST	17 525,7	254,8	12 428,0	382,8
15	"Xalq Sug’urta" MChJ SK	14 848,0	114,0	1 161,8	52,9
16	"Universal-Sug'urta" AJ	14 539,4	120,6	1 097,2	90,4
17	"Asko-Vostok" MChJ	13 486,7	219,2	453,1	205,9
18	"Kafil sug'urta" MChJ	13 102,6	178,2	147,2	166,2
19	"Agros Hayot" MChJ	12 922,7	-	3 295,9	-

[1] Jadval ma’lumotlari www.mf.uz saytidan olingan

https://wordlyknowledge.uz

20	"Global Insurance Group" MChJ ST	10 197,2	189,9	127,7	128,0
21	"Mega Invest Insurance" MChJ SK	9 423,6	130,8	438,5	101,4
22	"Tashkent Insurance Group" MChJ SK	8 464,0	180,1	1 149,5	649,1
23	"IShONCh" BSK MChJ	7 737,1	105,1	2 113,6	126,3
24	"Hamkor Sug'urta" MChJ	7 606,0	90,2	792,8	116,8

Mamlakatimiz aholisining sug‘urta madaniyati tobora yuksalib borishi natijasida majburiy sug‘urtaga nisbatan ixtiyoriy sug‘urtaning hajmi ortishiga erishilmoqda, bu esa raqobatda qatnashish istagidagi sug‘urtalovchilarga katta imkoniyat yaratadi, ya’ni mijozlarni jalb etishning barcha samarali usullarini qo‘llab ko‘rish zarar qilmaydi. Quyida aynan sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlari hajmida ixtiyoriy va majburiy sug‘urtaning nisbati aks etgan.



2-rasm**. Sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlarining tuzilishi**[2]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlari shundoqqina mamlakatimiz sug‘urta bozorining rivojlanganlik holatini o‘zida aks ettirgan. 2017 yil mobaynida yig‘ilgan jami sug‘urta mukofotlari hajmida ixtiyoriy sug‘urtaning ulushi 75 %ni tashkil etishi sug‘urta shartnomalarining aholi talab va ehtiyojlari asosida tuzilganligini anglatadi. Xuddi shu nisbat sug‘urta to‘lovlari hajmida ham kuzatilgan, bu esa sug‘urta da’volarining katta qismi ijobiy qondirilganligini bildiradi.

Mamlakatimizda sug‘urta xizmatlari bozori hali unchalik shakllanib ulgurmagan, aholi sug‘urtaning tub mohiyatini anglab etmagan davrlarda majburiy sug‘urtaning salmog‘i ixtiyoriy sug‘urtaga nisbatan ancha salmoqli edi,buning asosiy sababi, birinchidan sug‘urta

[2] Rasm mf. uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan chizilgan.

kompaniyalarining soni ancha kam edi va natijada kompaniyalar o‘rtasida raqobat mavjud emas edi, ikkinchidan, ba’zi insonlar sug‘urta nima ekanligi, uning afzallik jihatlari, ishonchliligini anglab etmagandilar. Sug‘urta to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lmay turib, unga ehtiyoj paydo bo‘lishi aqlga sig‘maydigan jarayon. Buning natijasida ixtiyoriy sug‘urtalanishni istaganlar soni juda kam edi va majburlab sug‘urta qilishlar amalga oshirildi. Sug‘urta sohasida qabul qilingan qonunlar, qarorlar hamda Prezident farmonlari sug‘urta kompaniyalarining sifatli xizmat ko‘rsatishlari, aholi ishonchini qozonishlari, buning uchun arzon narxdagi, ammo sifatli sug‘urta mahsulotini ishlab chiqarishni, aholining sug‘urta to‘g‘risidagi tasavvurini boyitish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilab qo‘ydi. Bu kabi iqtisodiy islohotlar o‘z natijasini berdi, ya’ni sug‘urta bozorining infratuzilmasi tashkil etildi va samarali faoliyat ko‘rsatishiga erishildi, sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sog‘lom raqobat vujudga keldi, bu esa bugungi kunda sifatli sug‘urtaviy xizmat ko‘rsatilishining asosiy sababchisi hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, sug‘urtaning ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan turlari salmoqli o‘ringa chiqdi. Bugungi kunda mamlakatimiz sug‘urta bozori infratuzilmasini samarali tashkiletish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sug‘urta brokeri, assistans, adjaster, syurveyerlarning barchasi yuridik shaxs sifatida ish olib boradi. Lekin mamlakatda mavjud 27 ta sug‘urta kompaniyasi uchun ushbu ishtirokchilarning soni kamlik qilmasmikan? Misol uchun, broker yoki agentlarning yordamisiz ham sug‘urta munosabatlarini o‘rnatish mumkin, lekin adjaster, syurveyerlarning xizmatidan har bir shartnomaning tuzilishida yoki sug‘urta summasini to‘lab berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda foydalaniladi. Demak, hamma sug‘urta kompaniyasi hamularning xizmatidan foydalana olmayapti, ayniqsa chekka tuman, shaharlarda, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, sug‘urta kompaniyalarining ko‘pchiligida ularning vazifasini sug‘urta agentlari bajarib kelmoqda. Sug‘urta agentlari haqida gap borar ekan, ular o‘z faoliyatida ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yayotganligini aytib o‘tish joiz. Ma’lumki, maktablar, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari o‘z o‘quvchi-talabalarini ko‘pincha sug‘urta agentlari orqali baxtsiz hodisalardan sug‘urtalaydilar. Agentlarning eng birinchi vazifasi potensial mijozlarni sug‘urtaning tartib-qoidalari, shartlari, sug‘urta mahsulotlari bilan tanishtirish, unda qo‘llanayotgan tarif stavkalarning qanday omillarga asoslanib hisoblangani, qanday hodisalar sug‘urta hodisasi deb tan olinishi yoki olinmasligi, sug‘urta munosabatiga kirishayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari yoinki barcha ma’lumotlarni sug‘urtalanmoqchi bo‘lgan shaxslarga taqdim etishi hisoblanadi. Lekin ba’zi sug‘urta agentlari o‘z vazifalarini sidqidildan bajarmayaptilar, bu ayniqsa chekka hududlarda sodir bo‘lmoqda, natijada o‘quvchilar, talabalar rahbariyatning buyrug‘i sifatida qarab sug‘urta mahsulotini sotib olmoqdalar, bu ham etmaganidek, sug‘urta polisini bir necha oylar o‘tganidan keyin o‘z qo‘llariga olmoqdalar, vaholanki sug‘urta polisi mijozga mukofot puli kompaniya hisobiga o‘tgandan keyin ikki kun ichida berilishi kerak. Aslida sug‘urta agentlari mijozlarni qidirib biror-bir idoraga kelar ekan, unda ishlaydigan xodimlarga yoki maktab o‘quvchilarini sug‘urtalayotganda ularning ota-onalari uchun sug‘urtaning mohiyati va afzallik jihatlari to‘g‘risida taqdimot tayyorlab kelishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga qarab mijozlar sug‘urtalanish kerak yoki kerakmasligi haqida mustaqil qaror qila oladilar. Agentlar sug‘urta xizmatlarining ahamiyatli tomonlarini atroflicha yoritib bersalar, bu sug‘urta kompaniyasining sug‘urta bozoridagi reytingini oshiradi hamda keyingi yillar uchun sug‘urta shartnomasi tuzilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ- 4699-son qarori https://lex.uz/uz/docs/4800661
2. Poslanie Prezidenta Respubliki Uzbekistan Sh.M. Mirziyoeva Oliy Majlisu ot 24.01.2020

g. http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-
respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020.

3. Ivanova, Ye. A. Sifrovie texnologii v straxovoy deyatel'nosti / Ye. A. Iva-nova // Upravlenie sosial'no- ekonomicheskim razvitiem: innovasionniy i strategicheskiy podxodi: sbornik nauchnix trudov po materialam Nasio-nal'noy nauchno-prakticheskoy konferensii, Gatchina, 27 dekabrya 2019 goda. Gatchina: Gosudarstvenniy institut ekonomiki, finansov, prava i texnolo-giy, 2020. S. 57-60.

4. Dashinimaeva, A. B. Vliyanie informasionnix texnologiy na razvitie rinka straxovix uslug / A. B. Dashinimaeva // Issledovanie innovasionno-go potensiala obshestva i formirovanie napravleniy yego strategicheskogo razvitiya : sbornik nauchnix statey 5-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii v 2-x tomax, Kursk, 29–30 dekabrya 2015 goda / Otvetstvenniy redaktor: Goroxov A.A.. – Kursk: Zakritoe aksionernoe obshestvo "Universitetskaya kniga", 2015. S. 153-156.

5. Maglinova T.G. Sifrovie texnologii i sovremenniy mejdunarodniy rinok straxovaniya / T.G. Maglinova, O.M. Shupilo // Finansoviy biznes. - 2021. - №8 (218). -S. 50-53.

6. Blokcheyn v straxovanii: zarubejniy opit i vozmojnosti dlya Rossii. https://www.fintechru.org/upload/iblock/3be/Blokchei_n_v_strahovanii_09102020.pdf

WORDLY
KNOWLEDGE